



DESTRUKSIYANI IFODALOVCHI FE'LLARNING VALENTLIK KATEGORIYASI

Amonova Zamira Bo'riyevna
O'zDJTU mustaqil tadqiqotchisi, Toshkent

Annotatsiya

Mazkur maqolada valentlik tushunchasining lingvistik talqini berilgan. Valentlik biriktiruvchisi sifatida so'z turkumlari orasida fe'llar muhim ahamiyat kasb etishi va gapda yetakchilik xususiyatlari bilan alohida o'rin egallashi bilan bog'liq qarashlar keltirilgan. Destruksiyaning ifodalovchi fe'llarda valentlik kategoriyasi, uning xususiyatlari, tilshunos olimlarning mazkur tushuncha bilan bog'liq nazariy yondashuvlari hamda valentlik nazariyasining fe'llar tadqiqidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: valentlik, fe'l valentligi, semantik munosabat, fakultativ valentlik, shartli valentlik

Tilning muhim birliklaridan biri sifatida ma'lum bo'lgan so'zlarning gaplar tarkibidagi o'rni va funksional jihatlarini tahlil qilish tilshunoslikning muhim masalalari qatoriga kiradi. Bunda gaplar tarkibida o'zaro aloqaga kirishgan bo'laklarning mutanosibligi va moslashuvini o'rganishga qaratilgan valentlik nazariyasiga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Valentlik tushunchasining tilshunoslikka kirib kelishi va taraqqiy etib borishining ilk bosqichlarida olimlar tomonidan, avvalo, fe'l so'z turkumi, uning boshqa so'z turkumlarini biriktiruvchanlik xususiyati, gap tuzilishidagi muhim ahamiyatiga e'tibor qaratilgan. Valentlik nazariyasini o'rganish an'anasi keyinchalik ot, sifat va boshqa turkumlar kesimida davom ettirilgan va bu orqali bir qancha tadqiqot ishlarining yuzaga kelishiga zamin yaratilgan bo'lsada, bugungi kunda fe'llarning valentligi tadqiqoti bilan bog'liq muammolar talaygina. Jumladan, sistem-struktur tilshunoslikning kirib kelishi fe'llarning valentlik xususiyatini maydon nazariyasiga asoslangan tarzda, turli semantik guruhlarda tasniflanishini inobatga olgan holda tahlilga tortilishini talab etmoqda.

Ma'lumki, valentlik [lot.valens, valentis – kuchli; mustahkam; sog'lom] atamasi dastlab kimyo sohasida ma'lum bo'lib, biror element atomining boshqa elementning muayyan sondagi atomini biriktirib yoki almashtirib, kimyoviy bog' hosil qila olish qobiliyati, hossasini ifodalagan. Tilshunoslikda mana shunday kimyoviy jarayonga



o'xshashlik asosida, ma'lum qoidalarga tayangan holda til birliklarining (so'zlarning) boshqa so'zlar bilan o'zaro birika olish qobiliyati yoki imkoniyati rus olimi tomonidan "valentlik" deb nomlandi (Kasnelson, 1987). Bu bilan so'z yoki gap tarkibidagi "bo'sh" o'rinlar va ularning to'ldirilishi nazarda tutilgan edi. Ya'ni har bir til birligi boshqa til birliklaridan alohida ajralgan holda, ular bilan tilning turli sathlari doirasida lingvistik munosabatga kirishmay turib, til va nutqda namoyon bo'lish qobiliyatini yo'qotadi. Til va nutq birliklari turli kommunikativ vaziyatlarda o'zlarining birikuvchanlik, moslashuvchanlik xususiyatlarini namoyon qila olsalargina tilning qurilish mexanizmi, uning grammatik munosabatlaridagi tamoyillarni tushunish mumkin. Shu nuqtai nazardan, olim valentlikning ikki turi - sintaktik hamda semantik valentliklarni kiritilishini taklif etdi (Muhamedova, 2007). Sintaktik valentlik so'z shakli (ifoda qismi) bilan bog'liq bo'lib, tillarning morfologiyasida o'z aksini topadi. Bunda sintaksis, ya'ni gaplardagi bo'sh o'rinlarning gap bo'laklari bilan to'ldirilishi mumkinligi yoki shartligi anglashiladi. Bunda bo'sh o'rinlar egallanishi shart va qoidaga ko'ra gapda mavjud bo'lishi zarur bo'lgan bo'laklar - obligator aktantlar hamda tushurib qoldirilishi mumkin bo'lgan va ularning ishtirokisiz ham gapning mazmuni anglashiladigan bo'laklar - fakultativ aktantlar bilan to'liq ko'rinishga ega bo'ladi. Bundan tashqari, gaplar tarkibida "*erkin bo'laklar*" (freie Angaben) ham keltiriladiki, ular hech qanday holatda gap kesimiga bog'liq bo'lmaydi va u tomonidan boshqarilmaydi (Helbig, Busha 2001). Turli tizimli tillarda destruksiyani ifodalovchi fe'llar har xil mazmundagi gaplarda o'ziga xos semantika va valentlikka ega bo'lishi bilan boshqa semantik maydon fe'llaridan farqlanadi. Buni destruksiyani ifodalovchi quyidagi fe'l misolida ko'rish mumkin: *jarohatlamoq – Nasiba ertalab oshxonada ehtiyotsizlikdan o'tkir pichoq bilan barmog'ini jarohatladi.*

- | | | |
|---------------|-------------|------------------|
| 1. Ega | Kim? | Nasiba |
| 2. Payt holi | Qachon? | ertalab |
| 3. O'rin holi | Qayerda? | oshxonada |
| 4. Sabab holi | Nima sabab? | ehtiyotsizlikdan |



5. *Ko‘makchili Nima bilan? o‘tkir pichoq bilan to‘ldiruvchi*
6. *Kelishikli Nimani? barmog‘ini to‘ldiruvchi*
7. **jarohatladi.**

Ko‘rinib turibdiki, mazkur gapda 6 ta bo‘sh o‘rin turli gap bo‘laklari bilan to‘ldirilishi orqali yaxlit mazmunni keltirib chiqarishga erishilgan. So‘roq olmoshlari “kesmoq” kesmoq leksemasiga birikish imkoniyatiga ega bo‘lgan so‘zlarga ishora qiladi. Berilgan misolda *Nasiba barmog‘ini* – obligator, *ehtiyotsizlikdan, o‘tkir pichoq bilan* – fakultativ aktantlar, *ertalab, oshxonada* – erkin bo‘laklarga misol bo‘la oladi. Erkin bo‘laklar ushbu gapdan ajralib chiqib, boshqa mazmundagi gapda qo‘llanilgan holatda ham o‘z ma‘nosida, fe‘l kesimga tobe bo‘lmagan tarzda voqelanadi.

Semantik valetlikda esa, so‘zlarning mazmun tomoni ahamiyatga molik bo‘lib, ular morfologik tarkibga bo‘ysunmaydi. Semantik valentlik so‘z semantikasining mantiqiy semalariga asoslanadi. Shu sema boshqa bir so‘z ma‘nosining mantiqiy semasi bilan mos bo‘ladi. So‘zlar muayyan so‘zlar bilan semantik birikib, sintaktik konstruksiyani hosil qilsa, boshqa so‘zlar bilan faqat lisoniy fakt, nominativ birlik xarakteriga egaligi bilangina umumiylikni hosil qiladi, ya‘ni ular o‘zaro mantiqiy aloqaga kirishmaydi (Rasulov, 2022). Bunday munosabatga kirishganda ham, bu faqat sun‘iy, shaklan bo‘lib, obyektiv turlicha faktlar bilan tasdiqlanmaydi (Tenyer, 2007). Misol tariqasida: *suvni kesmoq, matoni archimoq, asalni sindirmoq, so‘zni randalamoq*. Shuni aytish lozimki, tilshunoslikda so‘zning semantik valentligi tushunchasi bilan bir qatorda tashqi valentlik, ichki valentlik, formal valentlik, sintaktik valentlik, logik valentlik, vositali semantik valentlik, shakl semantikasi valentligi, emotiv valentlik va boshqa valentliklar ham borki, bularning har biri o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Fransuz olimi L.Tenyer “valentlik” atamasini, asosan, fe‘llar turkumi bilan bog‘lab gapdagi bosh vazifa aynan fe‘l (kesim)ga yuklanishini, qolgan so‘z turkumlari



(gap bo‘laklari) fe’llarga bo‘ysunishini ta’kidlaydi. L.Tenyer o‘zining nazariyasida fe’l turkumini valentlik tashuvchisi, valentlik tashkil qiluvchilarini esa shartli ravishda “aktant” deb nomlab, unga ega va to‘diruvchini kiritdi. Holning barcha turlari olim tomonidan “sirkonstantlar” deb nomlanib, ular valentlik tarkibiga kiritilmadi. Ushbu nazariyadan farqli ravishda va nemis olimi G.Gelbig va Bushalar nazariyasiga qo‘shilgan holda Yu.D.Apresyan valentlikning obligator va fakultativ (Apresyan, 1974) (shartli bo‘lmagan, ihtiyoriy) turlarini ajratdi.

Yuqorida yondashuvlardan kelib chiqib, ta’kidlash mumkinki, fe’l faqat harakat, holatnigina emas, balki vaziyatni ham bir butun holda anglatadi, u shu harakat, holat – vaziyatning barcha aktantlarini (qatnashuvchilarini) ham o‘ziga biriktirish qobiliyatiga egadir. Valentlik eng muhim lingvistik kategoriyalardan biri sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, u til taraqqiyoti va uning qatlamlaridagi bog‘liqlik mexanizmining mohiyatini tushunish uchun xizmat qiladi. Fe’l valentligining muhim jihatini shundaki, uning yordamida gapning tuzilishi belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. М; 1974. 79-94-бет.
2. Кацнельсон С.Д. (1987). К понятию типов валентности // Вопросы языкознания. 3, 21-бет.
3. Мухамедова С. (2007). Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари. ADD. Т. 28-бет.
4. G.Helbig, J.Buscha. (2001). Deutsche Grammatik. Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. – Berlin, München. Langenscheidt, S.522
5. Rasulov R. (2022). Valentlik nazarizasi. Multidisciplinary Scientific Journal. 443 b.
6. Теньер Л. (2007). Основы структурного синтаксиса. Перевод с фран. – Москва. Наука, -670 с.

PUBG OR DUOLINGO FOR LEARNING LANGUAGE?

Akhatova Sevarakhon
student
Uzbek State World Languages University